

Boburga bag'ishlandi

O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy kengashi tomonidan Zahiriddin Muhammad Boburning 537 yilligiga bag'ishlab Yoshlar Ijodiyot saroyida, #Boburday hashtegi ostida Yoshlar festivali tashkil etildi.

Bunda Respublikadagi barcha faol talabalardan tashrif buyurishdi. Jarayonni barcha Ommaviy axborot vositalari yoritib boryapti. Ko'plab estrada yulduzlari tashrif buyurdi hamda yoshlarga Bobur ga'zallaridan musiqiy chiqishlar taqdim etishdi. Institut Yoshlar kengashi, QXM, GM, Suv xo'jaligi tashkil etish va boshqarish fakulteti Yoshlar kengashi faollari tadbirda ishtirok etishdi.



O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy kengashi raisi Alisher Sadullayev Zafarovich so'zga chiqib Yoshlarimizni bilimi, salohiyatli kadrlar qilsak yurtimizning kelajagi bo'lishini takidlab o'tdi.

Alisher Zafarovich MMM 3 ta M formulasini Yoshlarga tushuntirib berdi. Ya'ni Maqsad, Mehnat, Mas'uliyat shu 3 ta tuyg'uni inson o'zida shakllantirib harakat qilsa barcha niyyatlariga erishadi va Buyuk bobolarimizga munosib avlod bo'lishini ta'kidlab o'tdi.



Suv xo'jaligi tashkil etish va boshqarish fakulteti Yoshlar yetakchisi Haytboy Iskandarov axboroti

Institut matbuot xizmati rahbari R.Jumaniyozov